

**Muminova Muxlisa Latif qizi**

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mehanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, ekologiya va huquq fakulteti, yurisprudensiya (yer munosabatlari) yo'nalishi 2-bosqich talabasi**

**Tel: +9989943037737**

**Email: [muxlisa\\_muminova04@mail.ru](mailto:muxlisa_muminova04@mail.ru)**

---

## **ABDULLA ORIPOV SHERIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, shoir, tarjimon, publitsist, jamoat arbobi Abdulla Oripov hayoti va ijodi, she'riyati, unvonlari haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Shoir, tarjimon, publitsist, jamoat arbobi, Abdulla Oripov, adabiyot, san'at, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Oliy Majlisi senati.

---

### **KIRISH**

O'zbek xalqi azaldan shoirtabiat xalq, uning tuprog'idan tortib yaprog'igacha shoirdir. Shuning uchun ham u farzandlariga she'riyat kabi teran, she'riyat kabi serma'no, bir-biriga uyqash ismlar qo'yadi. U to'y qilsa, shodliklarini she'rga solib “yor-yor” aytadi. Hattoki azada ham hasratlarini she'rga aylantirib bo'zlaydi.

Temur tig'i yetmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher [2]

Deb yozgan o'zbek xalqining sevimli farzandi, shoir Abdulla Oripov. Temur kabi sohibi zamonlar qilichi yetmagan yerlarni qalam bilan olishga Alisherni qodir qilgan qudrat she'riyatdir. She'riyatni “onajonim” deb ulug'lagan va chindan ham she'riyatga fidoyi farzand bo'lgan Abdulla Oripovning she'ri kirib kelmagan bironta xonadon O'zbekistonda topilmasa kerak.

“O'zbekistonning o'zi shoir bir yurt. Abdulla Oripov o'z she'rlarini ana shu “ustoz” ga barhaq va barhayot ilhom manbai, “asrlarning koshonasida mangu yorug' maskan” bo'lgan ona yurti – O'zbekistonga bag'ishlaydi” [3]. Darhaqiqat, shoir bu yurt o'zining shoir o'g'lini behad sevadi. Uning she'rlarini o'qiydi, yodlaydi. Biz dalada kolxozchilar tushlik payti Abdulladan she'r o'qiganlarini, bola emizib o'tirgan ayollar masrur bir xayol bilan tinglayotganini ko'rganmiz. Uning she'rlarini tinglagan chollar, umring uzoq bo'lsin, o'g'lim, deb alqaganini eshitganmiz. Olis safarlarga yo'l olganda faqat abdu llaning she'rlarini hamroh qilib olib ketgan shofyorlarni, uning she'rlarini qo'lidan qo'ymay yurgan quruvchilarni ko'rganmiz. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, Toshkentga borib kelgan kishilardan uning sog'ligini kuyinib so'raydilar. Bu haqda shoirning o'zi ham haqli ravishda faxrlanib yozadi:

Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq...

Paxtakorlar va ishchilar pisand qildilar,

Ziyolilar, yumushchilar pisand qildilar,

Studentlar, to'quvchilar pisand qildilar,

Maktabdagi o‘quvchilar pisand qildilar,

Bizni pisand qilganlarga ming bora qulluq [4]

Xalqning o‘z shoiriga bo‘lgan bu muhabbati Abdulla Oripov o‘zi orzu qilganidek “bizniki” bo‘lib qolganini bildiradi:

Koshkiydi ahli yurt turib tepamda

— U bizniki edi- desalar [5]

-deb yozgan shoir o‘sha olis yillar ortidagi “Mitti yulduz” to‘plamidan boshlab xalqning o‘ziniki bo‘lib qolgan.

Ma‘lumki, Abdulla Oripov ijodi deyarli barcha munaqqidlarimiz e‘tiborini tortgan. Biz mazkur tadqiqotda shoirning “Onajon”, “Mitti yulduz”, “Ruhim”, “Najot qal‘asi”, “Surat va siyrat”, “Yillar armoni” kabi kitoblari bilan tanishib, ayrim she‘rlari ustida fikr yuritdik. Shuningdek, Abdulla Oripov ijodi xususida bahs yuritgan taniqli munaqqidlarning maqolalarini o‘rgandik.

Salohiddin Mamajonov, Mahkam Mahmudovning she‘riyat haqidagi fikrlari, Matyoqub Qo‘shjonovning Abdulla Oripov ijodiga bag‘ishlangan “Onajonim she‘riyat” deb nomlangan risolasi, Norboy Xudoyberganovning “Ehtiros to‘lqinlari” kitobidagi shoir she‘rlariga munaqqid munosabati, shuningdek, N. Rahimjonov kabi tanqidchilar fikrini o‘rgandik. Yuqorida aytilgan manbaalarga suyanib, Abdulla Oripov she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan o‘z fikrlarimizni bayon etishga harakat qildik.

#### SHOIR –XALQ QALBINING TARJIMONI

Shoirning xalqqa, xalqning esa shoirga bu qadar dildosh va sirdosh qilgan shoir fazilatlarini, o‘ziga xos xususiyatlari nimada ekan? “Abdulla qaysi bir temaga qo‘l urmasin, nima haqda she‘r yozmasin, uning ko‘zi oldida Ulug‘ Vatan turadi, o‘sha ulug‘ Vatanning farzandi sifatida qo‘liga qalam oladi. Shu sababdan uning she‘rlari doim hayotbaxsh, pafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetik” [6], deb yozadi Matyoqub Qo‘shjonov. Abdulla Oripov she‘riyatining o‘ziga xos tomonlari haqida so‘z yuritilar ekan, uning she‘rlarini xalqqa manzur qilgan xususiyatlaridan biri uning xalqchilligida, xalq tilida yozilganligidadir.

Shoir o‘z qalbini xalq qalbiga tarjima qiladi, tarjima uchun esa shubhasiz so‘z kerak. Bu so‘z esa xalqning o‘z so‘zi bo‘lmog‘i lozim. To‘g‘ri, hamma shoir ham o‘z ona tilida she‘r yozadi. Lekin ayrim yo‘nalishdagi shoirlar borki, o‘zbek tilida o‘zbekcha bo‘lmagan she‘rlar yozadilar. Ularning she‘rini oddiy xalq tushunmaydi. Ularning lirik qahramoni butun dunyoga, XX asrga qarata falsafa so‘qiydi. Bunday “muallaq gaplardan” to‘ygan shoirning o‘zi ham shunday yozadi: Iqbol deb behuda chekasan yohu, Ohing bu – folbinning daraklaridir. Asrim, asrim deysan asring nima u?! U — to‘zg‘oq kalendar varaqlaridir[7]. Shoir bu she‘rida havoyi gaplardan ko‘ra yonginangda turgan insonning orzulariga oshno, dardlariga hamdard bo‘lishga chaqiradi. Yuqorida keltirilgan she‘rdagi quyidagi misralar buni yaqqol tasdiqlaydi: Inson deb falakka hayqirmoq nega, Inson yoningdaku, u mening qo‘shnim[8]. Axir, paxtakor-paxtakor” deb siyqa nom bilan siylangan kolxozchining, ishchining, mexanizatorning ham qalbi bor, ularga ham ma‘naviy rizqu ro‘z – she‘riyat kerak. Xalqqa tushunarsiz, o‘ta donishmandlik da‘vosida, turli xil eksperimentlar shaklida yozilayotgan she‘rlar to‘lib-toshib yotar ekan, ko‘pchilik hamisha Abdulla Oripov she‘rlarini sog‘inib, Erkin Vohidovga ko‘z tutib, Omon Matjonni izlab yursa hech ajab emas.

Abdulla Oripov yoshlar bilan bo‘lgan bir suhbatda shunday deydi: “O‘zbek tilida eshakni eshak deyiladi, lekin ba’zi shoirlar eshakni eshak deyishdan or qiladi”[9]. Ha, shoir xalq so‘zi bilan xalq qalbini kuylaydi, kuylaganda dilrabo ohang bilan, yonib, o‘rtanib kuylaydi. Kulma, kulma, nega kulasan, Xijolat chekkanning holiga. Nega qo‘l uzatding bir kambag‘alning O‘g‘rilardan qolgan moliga[10]. “O‘g‘rilardan qolgan mol” – xalq tilidagi oddiy ibora, lekin shoir tiliga ko‘chganda bu ibora inson qalbining tafakkur rivojlanib borgani sayin kamyoblanib borayotgan ezgu tuyg‘ulari ekanligini shunday ta’sircha ifodalaydiki, eng besavod odamning ham qalbi titraydi. Kolumbda bor alamim manim, O‘zbekiston Vatanim manim[11]. Shoir kuylagan bu “alam” – xalqning buyuk armoni, dardi, g‘ururi ekanligini xalq qalbiga tarjima qilgan. Bu misralarni o‘qigan har bir she’rxon bu “Alam”ni o‘z qalbiga tuyadi. Taajjubki, bu “alam”dan ko‘ksi tog‘dek ko‘tariladi. Abdulla Oripov she’riyatining o‘ziga xosligi shundaki, u behad o‘ziga xos shoir. U sevsa, yonib, o‘rtanib sevadi, agar nafratlansa, sevgisi darajasidagi kuchli dard, armon bilan nafratlanadi. Unda hech qachon oraliq holat bo‘lmaydi. Men shoirman, istasangiz shu, O‘zimbiki erur shu sozim. Birovlardan olmadim tuyg‘u, O‘zgaga ham bermam ovozim[12]. Bu – o‘zligini anglagan o‘zbekning o‘ktam ovozi. Ayni paytda “mijg‘ov va past” gaplardan zada bo‘lgan shoir qalbining nidosi.

“Sozim” she’ri shoirning eng yoniq, fikrchan va kurashchan she’riyati namunasi. Lekin tanqidchi Norboy Xudoyberganov mazkur she’rni “Biroz umumiyroq she’r bo‘lib, unda konkret mazmun chuqur yoritilmagan. Bordi-yu zikr etilmoqchi bo‘lgan fikr jonli, hayotiy va haqqoniy lirik qahramon xarakteriga singdirilib, yedirilib yuborilganda edi, she’rning ta’sir kuchi yanada ortardi”[13]- deb maslahat beradi. Axir, bu she’rda lirik qahramon shoirning o‘zi-ku, axir u “jonli, hayotiy va haqqoniy” emasmi? Bu she’rning o‘zi butunligicha tanqidchi e’tirozlariga raddiyadir. N. Xudoyberganov Abdulla Oripovning sadoqat gimniga aylanib ketgan «Ayol» she’riga ham noto‘g‘ri munosabat bildirgan. “Baxt va muhabbat yo‘lida” nomli maqolasida “Fidoyilik, o‘lgan odam uchun baxtni qurbon qilish g‘ bu, asketizm va fatalizmning ko‘rinishlaridan biridir. Bunday holat har qanday sharoitda ham kishini tushkunlikka, tarkidunyochilikka olib boradi”[14] – deb yozadi va fikrini davom ettirib, Abdulla Oripovning “Ayol” she’rini misol kel[15]tiradi. “Abdulla Oripov o‘zining “Ayol” she’rida beva qolgan ayollarni ulug‘lab, o‘zlarini “Ming bitta bozordan olib, ming bitta bozorga soladigan” buzuq xotin qizlarga qarata: Shu sodiq bevaga sajdalar qiling, Shu sodiq bevaga aylang ehtiro, – deydi. Buni qanday izohlash mumkin? Avvalo shuki, yengil tabiatlixotinlar bevalarga sig‘inmaydi, ularga bosh egmaydi. Negaki, ular bevalikni tarkidunyochilik bilan baravar deb tushunishadi. Binobarin, haligiday yengil tabiatli ayollarga nisbatan beva qolgan xotinlarni emas, balki ko‘z o‘ngida turmush kechirayotgan sadoqatli er-xotinlarni namuna qilib ko‘rsatilsa yaxshi bo‘lardi”. Tanqidchi: “Aza umrbod davom etishi mumkin emas, nahotki, yoridan ajraganlarning hammasi bir umrga tarki dunyo qilishi kerak bo‘lsa?” – deya ajablanib, “Ayol” she’ridagi singari ayollarni esa istisno holatlarga yo‘yadi. Yuqorida keltirilgan munaqqid fikrlariga bizning e’tirozlarimiz bor. Birinchidan, fidoyilik hech qachon tarkidunyochilikka olib bormaydi. Agar yoridan ajralganlarning hammasi bir umrga yoriga sodiq qolmoq uchun beva o‘tsalar ham, dunyo bundan hech qanday ziyon ko‘rmasdi, balki bevafo, betutruqlar jabridan ruhi majruh, qalbi xasta bo‘layotganlar, “sadoqat satridan nolib, nadomat komida qolgan” ayollar aybi bilan dunyoga kelib, tirik yetim bo‘layotgan bolalar kamayar edi, qo‘ying-chi, dunyomiz ma’naviy jihatdan poklanar edi. Ikkinchidan esa, tannoz ayollar bevalarga sajda qilmas ekan, o‘sha namunali er-xotinlardan ham o‘rnak olmaydi. Agar shoir she’rini munaqqid aytgandek yozsa, u holda “Ayol” sheri ayolga qasida emas, ayolga nasihat bo‘lib qolardi. Umuman, sadoqatli er-xotinlarni namuna qilib ko‘rsatish shoirning ishi emas, balki mahalla komitetlarining ishi emasmi? Munaqqid Abdulla Oripovning “O‘ylarim”, “Bahor”, “Albomga”, “Temir odam”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” kabi she’rlarini bunisida undoq demoqchi, bunisida bundoq demoqchi deb, hadeb uqtiraveradi. Agar tanqidchining vazifasi o‘quvchiga she’rning mazmunini tushuntirib berish emas-ku! Ayniqsa, Abdulla Oripov kabi shoirning she’rlari hamma uchun birdek tushunarli emasmi! Bizningcha,

munaqqid shoirning sa'natini, she'rning ta'sir doirasini inson ruhining qaysi bilgisiz nuqtalariga daxldorligini she'xonga yetkazishi kerak.

N. Xudoyberganov Abdulla Oripov she'rlarining "ayrim nuqsonlari" haqida bosh qotirib, shunday deydi: "Abdulla Oripovning ayrim she'rlarida mantiqiy izchillik yetishmaydi, fikrni yalang'och ifodalash ustun turadi, poetik manzaralar yaratish o'rniga nasihatbozlikka berilish holatlari uchraydi"[16]- deydi.

Agar shoir she'rlarida poetik manzaralar bo'lmasa, biron bir she'rida nasihatbozlikka berilgan bo'lsa, she'rxon Abdullani bu qadar sevmas edi.

#### RANGIN TUYG'ULAR MUSAVVIRI

Poetik manzaralar yaratish, tabiat manzaralarini inson tuyg'ulariga yo'g'irib tasvirlash Abdulla Oripov she'riyatining yana bir o'ziga xos, takrorlanmas qirralaridan hisoblanadi. U shu qadar ajoyib, betakror manzaralar yaratadiki, usta rassomlardan ham o'tkarib yuboradi. Aslida she'riyat- bu, rangin olamning inson tuyg'ulariga, inson kechinmalariga yo'g'irilgan tasviridir. Ma'lumki, hamma voqea-hodisalar zamon va makonda sodir bo'ladi. Hatoki, inson qalbida kechgan eng mayda tuyg'ular ham.

Kimningdir ko'ksiga engashgan gul

Marmar sag'anadan o'qib turar bayt[17].

Mazkur misralarda bir tomonda mangu yo'qlikka ketgan insonning mangu makoni, ikkinchi tomonda esa uning ko'ksiga engashib, tiriklik qo'shig'ini kuylab turgan gul tasviri chizilgan

Yo'q, shoirlar aldaydi bizni,

Bahor faqat uch oydir xolos[18].

Shoirning bu haqqoniy misralaridan she'rxon qalbida mangu bahorlar boshlansa ajab emas.

Aytgim keldi onam, yoningga,

Yuragimda ismsiz dardlar.

Sovuq xonam, soat "chiq-chiq"i,

Tashqarida hazonrez bog'lar[19].

Agar "sovuq xona", "soat chiq-chiqi", "xazonrez bog'lar" tasviri bo'lmasa, biz ham o'sha "ismsiz dard"ning ismini bilolmay qolardik.

Mag'lub bahodirning nayzasi misol

Ma'yus egiladi terak uchlari.

Barglar soyasida o'ynaydi behol

Uyqudagi qizning bedor tushlari[20].

Egilgan terak uchlarining ma'yusligi, uyqudagi qizning bedor tushlari barglar soyasida o'ynashining surati... Naqadar go'zal tasvir. Bu misralarni munaqqid emas, balki bastakorgina (u ham shoir darajasidagi shoir qalb sohibi bo'lsagina) sharhlashi mumkin. Fikrimizcha, "o'zbek onanomasi"da Mirtemirdan so'ng hech kim Abdulla Oripovchalik "ko'p va ho'p" yozmagan. Abdulla yaratgan ona obrazi munisu mushfiq, o'zi aytgan allalar ohangidek inson qalbini ezgulikka chorlovchi onadir.

U kun chetda oh chekardim

G'ussalarning dastidan.

Sen otamga pul beribsana

Yostig'ingning ostidan[21].

Hayotining so'nggi daqiqalarini kechirayotgan onaning bu cheksiz armonli saxovatidan jonu jahona o'rtangan farzandning minnatdor iztirobini quyidagi satrlardan ham samimiyroq ifodalash mumkinmi?!

Balki sening qabring uzra

Ko'karganda gulchechak,

Otonamga qadam qo'yar

Sen istagan kelinchak[22].

Abdulla Oripov o'z onasining munis siymosini, ezgu xotirasini ulug'lar ekan, u ona-jahonga Alisherlarni bergan barcha yaxshiliklar beshigini tebratgan jamiki onaizorlar obrazini yaratadi.

#### SHOIR YANGILAGAN KO'HNA MUHABBAT

Adabiyotimizda Abdulla Oripovning "Mitti yulduz"i porlaguncha muhabbat mavzusi eski ohanglarda, siyqa obrazu tashbehlarda kuylanar edi. Birovlar yorning qoshu ko'zini maqtab ovora bo'lsalar, ba'zilar bevafo yorga ta'na toshlarini otib charchamas edilar.

Abdulla Oripov she'riyatidagi oshiq obrazi esa armonli muhabbatga duchor bo'lib, bir umr "hayot barcha ne'matlarini ayamasa-da, muhabbat taqdiridan maqtan olmay" o'tishga mahkumdir. Lekin u munisa qizga hech qachon ta'na toshlarini otmaydi, bevafoqlikda ayblamaydi, balki –

Nega bir tosh bo'lmagansan, seni avaylab,

Til ostimga solib yursam jonimga joylab[23] —

Deya armon qiladi.

Jo'nar bo'ldim men bundan diltang,

Yo'llarimga qarab qolding sen.

Sochginangni tarab qolding sen.

O, bilaman, badjahl otang

Ostonangga yo‘ltmas seni[24].

Shoirlar “uzalgan qo‘llari” bilaguzuk bilan bog‘langan qizning munis va ma‘yus surati ko‘z o‘ngimizda muhrlanib qoladi. “Bilaguzuk bilan bog‘langan” qo‘llar tasvirida ham, shoirlarning “Bilaguzuk banding uzilsin, yor qo‘lini qisgandan ko‘ra!” – deya qilgan nidosida ham qandaydir yorug‘lik, qandaydir tozalik, qandaydir ajib shoironalik bor. “Geyneni yondirgan yulduz”, “Alisherning Gulisi” darajasida sevilgan qiz – Abdullaning she‘rlariga muattar bo‘y taratib turgan gulga o‘xshaydi.

#### SHOIR OLAM BILAN “YUZMA-YUZ”

Abdulla Oripov ijtimoiy mazmunda davrimizning katta gaplarini ajib misralarda ayta olgan shoirdir. Uning “Yuzma-yuz”, “Temir odam”, “Uyqu”, “Dengizga” kabi she‘rlarida davrimizning dolzarb masalalari ko‘tarilgan. Bu she‘rlar xususida juda ko‘p munozaralar bo‘lib o‘tgan. Katta munaqqidlar bu she‘rlarni har tomonlama sharhlab, yuksak baho berishgan.

Biz bu o‘rinda bir narsanigina aytib o‘tmoqchimiz. Norboy Xudoyberganov “Yuzma-yuz” she‘riga “Yuzma-yuz” deb nom berilishi o‘zini oqlamaydigan taassurot qoldiradi. Nega yuzma-yuz, kim bilan yuzma-yuz? Bu muammoligicha qolib ketgan”[25], -deydi. Bizningcha, shoir siz bilan yuzma-yuz, she‘rxon bilan yuzma-yuz, qo‘ying-chi butun olam bilan yuzma-yuz! Bu olamning barcha dardlari, orzu va armonlari shoir qalbida aks-sado beradi. Shuning uchun ham shoir o‘zining “So‘nggi urush” she‘rida yozadi:

Bir qadam qo‘ysang bas- naryog‘i o‘lim,

Bir qadam qo‘ysang bas – shaksiz halokat.

Odamzot boshida turibdi bu zum

Qazoyi muallaq, mudhish halokat[26].

Insoniyat o‘z qo‘li bilan yaratgan bu “mudhish falokat”ni , “qazoyi muallaq”ni shoir yanada aniq va ravshan tasvirlar bilan ko‘z oldimizga olib keladi.

Bu bari – asrimiz kashf etgan balo,

Bu – yovuz sarmoya, hamisha basir.

Boshimiz ustida turibdi go‘yo

Bir soch tolasiga bog‘langan shamshir[27].

Shoirlarning bezovta qalbidan sitib chiqqan bu misralar insoniyatni hamisha qalbi, imoni, vijdoni bilan uyg‘oq bo‘lishga chorlaydi.

Abdulla Oripovning “Yillar armoni” deb nomlangan navbatdagi kitobiga kiritilgan yangi she‘rlarining ko‘pchiligida inson qalbining ashaddiy kushandarlari bo‘lgan hasadgo‘ylar, g‘iybatchilar, fitna-fasodchilar, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va razolat haqidagi qarashlari yanada keskin ruh bilan ifodalanadi. Abdulla Oripov bir she‘rida shunday yozadi:

Sizdan nima ketdi, ey do‘sti aziz,

Sog‘inmang menga ham bir zum yomonlik.

Mendan nima ketdi, Sizga ham cheksiz

Saodat tilayin, tilay omonlik[28].

Chindan ham, koshki edi, shoir aytgandek, odamzot hech qachon bir-biriga yomonlik sog‘inmasa, qani endi, hamma hamisha bir-biriga saodat va omonlik tilayversa. Shoirning bu ezgu orzulari sizning qalbingizga ham “mendand nima ketdi, yaxshilik qilsam2 qabilidagi mardona tuyg‘ularni uyg‘otadi. Abdulla Oripovning Erkin vohidovga bag‘ishlangan “Arslon chorlaganda...” deb nomlangan she‘rida bu ikki zamondosh shoirning ulug‘ maqsadlarini arslonga o‘xshatadi. Buyuk qalb sohiblari bo‘lmish bu shoirlarning ezgu maqsadlar shohi – arslon qoshiga chorlagandi. Va bu ulug‘ maqsadlarga erishish uchun ularda matonat ham, bardosh ham bor edi. Lekin ularga yo‘lda qumursqalar – razil va xudbin insonlar hamrox bo‘ldilar. Jamiki tiriklikka tanish bo‘lgan bu xatar faqat yoppa talamoqqagina yaratilgan. Axir inson ana shunday qumursqalar bilan olishib ulug‘ maqsadlariga erisholmay qolishi mumkin-ku.

Bu she‘r tiriklikning xatarli hamrohi bo‘lgan qumursqanusxalarga ayovsiz aybnomadir. Mana, o‘sha she‘r:

Biz ham yuksaklarga tikkandik ko‘zni,

Bizda ham bor edi matonat, bardosh.

Arslon chorlagandi qoshiga bizni

Lekin qumursqalar bo‘ldi safardosh.

Jami tiriklikka tanish bu xatar,

Qumursqa yaralgan yoppa talarga.

Do‘stim, alam qilar, arslon bexabar

Yem bo‘lib ketsak bu qumursqalarga[29].

Shoirning mazkur to‘plamdagi ko‘pgina yangi she‘rlarida inson qalbini ich-ichidan yemiruvchi, aslida esa mayda tashvishlar hisoblangan illatlar xususida so‘z ketadi.

Yuqorida biz ko‘rib o‘tgan “Arslon chorlagandi...” she‘ri bilan yonma-yon “Sen uzoq yashaysan...” deb boshlanuvchi she‘r ham bor. Bu she‘rda inson umrini egovlovchi omillardan biri inson ruhiyatiga ozor beruvchi, uning qalbini majruh qiluvchi “beomon hislar” ekanligini kuyinib aytadi. Bu she‘rni shoir shunday yakunlaydi:

Yuz yil yashab o‘tar dunyodan birov,

Fursat manglayiga sololmas izlar.

Yo‘q, yo‘q yillar emas ularga egov

Uni yemiradi beomon hislar[30].

Sho'irgaki, shunchalar ruhiy azob beruvchi zotlar bor ekan, ulardan insoniyatga hali-hamon osoyish yo'qdir. Axir, alisherni sarsonu sargardon qilgan, Pushkinga o'q uzib, mashrabni dorga ostirganlar ham o'shalar emasmi?!

Abdulla Oripovning fikran barkamol, badiiy tafakkurning yetuk namunasi bo'lgan she'rlaridan biri "Olomonga" she'ridir. Bu she'r shu qadar mantiqan yaxlitki, biror bandini ajratib olib tahlil qilish mumkin emas. Shuning uchun bu she'rni to'laligicha keltiramiz.

Mashrab osilganda qayoqda eding?

Lorka otilganda qayoqda eding?

Surishtirganmiding Qodiriyini yo

Qalqon bo'lganmiding kelganda balo?

Hukmlar o'qilur sening nomingdan,

Tarixlar to'qilur sening nomingdan.

Nimasan? Qandayin sehrlil kuchsan?

Nechun tamoshoga munchalar o'chsan?

Qarshingda hasratli o'yga tolaman:

Qachon xalq bo'lasan, ey, sen- olomon?![31].

Axir biz ham har qadamda ana shunday olomonni uchratmayapmizmi? Avtobuslarda joy bo'shatish malol kelib, nogiron chollar bilan janjallashayotgan ba'zi beyuzlarni ko'rib, indamay yalpayib o'tirgan kimsalarni, birovning cho'ntagini kesib ketayotganlarni ko'rib ko'rmaslikka olayotgan kishilarni, birovni nohaq malomat qilib, infarktga yo'liqtirgan "olomon"ni biz ko'rmayapmizmi? Ba'zi hollarda o'zimiz istab-istamay ana shu "olomon"ga qo'shilib qolmayapmizmi?

Shoir go'yo o'zining otashin misralari bilan vijdoni uyg'oq kishilarni olomon orasidan tortib chiqarmoqchi. Biroq shoir razillar razolatiga qancha ko'p duchor bo'lmasin, bedillar sitamidan qancha ko'p ozor chekmasin, inson qalbining ezguligiga va bu ezgulikning manguiligiga qattiq ishonadi. Shuning uchun ham u yozadi:

Dunyoda diyonat hali mavduddir,

Hali mard yigitlar yashab yuribdi.

Onalar oq suti hamon oq sutdir,

Quyosh ham falakda porlab turibdi[32].

U xayrlashuv she'rida:



Hayajon bu- o‘lim, kulfatdir – qo‘shiq,

Qilt etgan shamoldan titramas yurak.

Unga endi na dard, na quvonch, na ishq,

Balkim tung‘ib qolgan bir orom kerak[33].Chindan ham dunyoning dardlarini, bani odamning sevinch va xasratlarini qalbida tuya-tuya, shoirning hasta yuragi uchun “hayajon-o‘lim, “qo‘shiq-kulfat” bo‘lib qolmog‘iga ham shubha qilmasa bo‘ladi.Mazkur tadqiqotning muallifi shoirning ana shu she‘riga quyidagi javob she‘rini yozgan.

#### ABDULLA ORIPOVNING “XAYRLASHUV” She‘RIGA JAVOB

Ketmang siz, chechaklar yig‘laydi yum-yum,

Ketmang siz yulduzlar ko‘tarar faryod.

Shamollar boshini toshlarga urib,

Dod deydi, dod deydi, dod ustiga dod!

Sohir tabiatning sobir g‘amkashi,

Ketmang, to ohular yutmasin og‘u.

“O‘zi ming yillarkim qo‘shiq serqayg‘u..”

Qo‘ying, u endi hech chekmasin yohu!

Ketmang siz, to hayrat bezabon qolib,

Hasratga esa til bitmasin biyron,

Shoir o‘z xalqining toza iymoni,

Ketmang, to bepanoh qolmasin iymon.

Shoir qalbiga shunchalar ozor bergan dard nima? Bu savolga javobni ham shoirning o‘z she‘rlaridan axtarmoq kerak.Abdulla Oripov “Qonuniyat” nomli she‘rida aytgan alamli haqiqat qalblarni larzaga soladi. Dunyoda jamiki mavjudotning o‘z yashash tarzi bor. Mushuk sichqonning kushandasi, tulki esa quyon yoki tovuq yeb tirikchilik qiladi. Faqat odamzotgina bir-birining kushandasi ekanligi shoir qalbini o‘rtaydi:

Oh, faqat odamzot – farzandi bashar,

Bir-birin maxv etish qasdida yashar[34].

Mana, shoir qalbini beorom, yuragini dog‘ qilgan dard! Bu dard butun bashariyatning dardidir. Shoir ana shu olamshumul dardga davo izlaydi. Chunki shoir olam dardini hammadan ham ko‘proq, hammadan ham teranroq tuyadi. Shuning uchun ham u hamisha yonib, o‘rtanib kuylaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOT:**

- [1] Фарғона давлат педагогика институти Ўзбек филологияси факультети 5-курс талабаси Максуда Эргашеванинг диплом иши. Илмий раҳбар: филология фанлари кандидати , доцент Муҳаммаджон Мадғозиев.
- [2] Орипов Абдулла. Йиллар армони. Ғ.Ғулум номли адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент-1984. 216-б.
- [3] Раҳимжонов Нуъмон. Қалбнинг тўрт фасли – “Ўзбекистон маданияти” газ.,28 август 1979 йил.
- [4] Орипов Абдулла. Йиллар армони, 447-б.
- [5] Ўша жойда, 216-б.
- [6] Қўшжонов М. Камалакдай сержило – Абдулла Орипов. Йиллар армони. 3-б.
- [7] Орипов Абдулла. Йиллар армони., 1984, 436-б.
- [8] Ўша жойда.
- [9] А. Ориповнинг 1981 йил август ойида бўлиб ўтган “ЁШш ижодкорларнинг республика семинари2 машғулотигадаги суҳбатидан
- [10] Орипов А. Йиллар армони. 33-б.
- [11] Ўша жойда. 223-б.
- [12] Ўша жойда.
- [13] Худойберганов Н. Чўққилар чорлайди. Т., 1975, 115-б.